

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMLARI

Erkaboyev Abrorjon Xabibullo o'g'li

Farg'ona politexnika instituti, assistent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7184027>

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalar va tashkilotlarda xalqaro standartlar asosida joriy etilgan turli xil menejment tizimlari, xususan sifat menejmenti tizimi, ekologik menejment tizimi, oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimi va boshqalarning integratsiyasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: menejment tizimi, xalqaro standart, integratsiya, ISO 9001, ISO 14001, OHSAS 18001.

Tashkilotlarda turli xil menejment tizimlarini birlashtirish to'g'risida masalalar oxirgi yillarda ISO 9001 standarti talablariga muvofiq SMT joriy etish va ularni sertifikatlashtirish keng ko'lamda "ommaviy" amalga oshirilmoqda. Biroq, bunday birlashtirish uchun faqat ISO 9001 standarti nashr qilinganidan so'ng keng e'tibor qaratilmoqda.

Menejment tizimlarini integratsiyalashga intilish bir qanda korxonalarda SMT bilan birga ekologik boshqaruv, mehnat xavfsizligi tizimlarini joriy etib va sertifikatlashtirib hamda buning asosida sifat sohasidagi boshqa qiziqishlar va biznesni takomillashtirish modeli o'zlashtirildi. Shunday qilib, "umumiy sifatga mo'ljallangan tashkilotni menejment tizimi" deb nomlanuvchi tadqiqot va ishlanmalarning yangi yo'nalishi yuzaga keldi.

Tashkilot menejmenti tizimi ISO 9000 standartlari oilasiga asoslangan sifat menejmenti tizimini boshqa xalqaro standartlarga asosida yoki kelishilgan, standartlarni tan olish hisobiga quyidagi menejment tizimlarini integrirlash yo'li bilan shakllantirish mumkin:

1. Biznesni takomillashtirish modeli (EFQM – Yevropa sifat menejmenti fondi ishbiarmonli takomillashtirish modeli; MBNQA - M. Boldridj mukofot modeli; BPR – biznes-jarayonlar reinjiningi va boshqalar).
2. Atrof-muhit menejmenti tizimi (ISO 14001 "Ekologik menejment tizimi. Qo'llash bo'yicha talablar va tavsiyalar").
3. Mehnat va salomatlik xavfsizligi menejmenti tizimi (OHSAS 18001 "Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi sohasida menejment tizimi. Talablar"; GOST 12.0.006 "Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Tashkilotda mehnat muhofazasini boshqarishga umumiy talablar").
4. Ijtimoiy va axloqiy menejment tizimi (SA 8000 "Korporativ ijtimoiy javbgarlik").
5. Tarmoq SMT (ISO/TS 16949).

O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarining sifat menejmenti samaradorligini oshirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Sifat menejmenti tizimlarini joriy etgan korxonalar orasida faqat bir nechtasi haqiqiy iqtisodiy va boshqaruv ta'sirini sezadi. Jahon tajribasiga qaramay, rahbarlar bunday tizimlarni yaratish va rivojlantirishga shubha bilan qarashadi. "Integratsiyalashgan tizimlar" iborasi yaqinda paydo bo'ldi. Ko'pincha bu tushunchada sifat menejmenti tizimi va atrof – muhitni boshqarish tizimining integratsiyasi nazarda tutilgan bo'lsa-da, bu konsepsiya doirasida vazifaalar bajariladi, ya'ni xodimlarni boshqarish tizimlarini, resurslarni, moliyaviy faoliyatni, xavfsizlikni, korporativ infratuzilmani, axborotni va boshqalarni integratsiyalashni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan boshqaruv tizimi ostida boshqaruv tizimi uchun ikki yoki undan ortiq xalqaro standartlarga javob beradigan va bir butun sifatida ishlaydigan umumiy korxonalar boshqaruv tizimining bir qismi tushuniladi.

Bugungi kunda dunyoda korxonalarini boshqarishni modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri xalqaro ISO 9000 va 14000 seriyali, SA 8000, OHSAS 18000 seriyali standartlar va boshqalar asosida integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini yaratish va amalga oshirish hisoblanadi. Ushbu hujjatlarda sifatni tizimli boshqarish, ekologiya, xodimlar, mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi, tizimlarni axborot bilan ta'minlash bo'yicha jahon tajribasi to'plangan. Sifat menejmenti tizimlarini joriy qilish bo'yicha halqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, sifat menejmenti tizimlari, atrof-muhitni boshqarish tizimlari, professional xavfsizlik va sog'liqni saqlashni boshqarish tizimlari, axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari va boshqalar, korxonalar uchun haqiqiy foyda keltiradi. Tizimlarning integratsiyalashuvi tarmoq korxonalarini faoliyatining mohiyatini belgilovchi barcha jarayonlarni bir butunga birlashtiradi, bo'limlarning ishini har qanday biznesni rivojlantirishning eng muhim maqsadga erishishga yo'naltiradi – iste'molchilarning talab va istaklarini qondirish orqali yuqori foyda olishga erishiladi. Shu bilan birga, yangi axborot texnologiyalari asosida ekologik jihatlar va sifat, xodimlar va resurslar, moliya va axborot, jarayonlar va muddatlar, xavf-xatar va xavfsizlikni samarali boshqarish va natijada mahsulot va korxonaning raqobatbardoshligini oshirish ta'minlanadi.

Integratsiyalashgan menejment tizimi (IMT) bir butun tizim sifatida faoliyat yuritadigan ikki yoki undan ortiq boshqaruv tizimlarining to'plamidir. Tashkilotning eng keng tarqalgan tarkibiy qismlari O'zDSt ISO 9001 sifat menejmenti tizimi, O'z DSt ISO 14001 bo'yicha ekologik menejment tizimi, O'z DSt OHSAS 18001 bo'yicha mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi, shuningdek boshqa boshqaruv tizimlari hisoblanadi.

Korxonada integratsiyalashgan menejment tizimini joriy etish ko'pincha bir nechta standartlarni parallel yoki izchil ravishda mustaqil ravishda amalga oshirishda yuzaga keladigan quyidagi muammolarni hal qilishi mumkin:

- bo'limlardagi jarayonlarni, hujjatlarni, lavozimlarini va funksiyalarining takrorlanishi;
- sifat menejmenti tizimlari, ekologiya, xavfsizlik va mehnat gigienasi o'rtasidagi o'zaro aloqalarning murakkabligi;
- korxonaning boshqaruvi tomonidan boshqaruv tizimining umumiy idrokining murakkabligi va shuning uchun umuman rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarishning past samaradorligi;
- korxonada standartlar guruhini joriy etishning uzoq muddati;
- ko'p mehnat va standartlar guruhini mustaqil amalga oshirishda resurslarga bo'lgan ehtiyoj.

Integratsiyalashgan menejment tizimlarini joriy etishning afzalliklari:

- boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish, joriy etish va ulardan foydalanishning texnologik darajasini oshirish;
 - yagona muvofiqlashtirilgan boshqaruv tuzilmasini ishlab chiqish;
 - ishlab chiqish, jarayon va sertifikatlash xarajatlarini kamaytirish;
 - IMT doirasida bir nechta jarayonlarni birlashtirish imkoniyati (rejalashtirish, boshqaruvni tahlil qilish, hujjatlarni boshqarish, o'qitish, malaka oshirish, ichki audit va boshqalar);
 - o'zgaruvchan sharoitlarga mobillik va moslashuvchanlikni oshirish;
 - iste'molchilar, manfaatdor tomonlar, investorlar uchun jozibadorlikni oshirish.
- Standart tizimni birgalikda amalga oshirish tizimlarning narxini va tezligini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

REFERENCES

1. Борисова Т.А., Дмитриев В.Я. Системы менеджмента качества: Учебное пособие: Санкт-Петербург 2017г. – 33с.
2. Вдовин С.М. Система менеджмента качества организации: Учебное пособие / С.М. Вдовин, Т.А.Салимова, Л.И.Бирюкова. – М.: ИНФРА-М, 2018. – 299с.
3. Трошин В. Н. Интегрированные системы менеджмента – Что это такое? / В. Н. Трошин// Стандарты и качество.- 2002. – №11.
4. ISO 9001:2015. Sifat menejmenti tizimi. Talablar.